

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 2 сон



Бош мұхаррір: Наманган давлат университети ректори С.Т.Турғунов

Масъул мұхаррір: Илмий ишилар ва инновациялар бүйічі проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул мұхаррір ұрнабосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлайтын бўлими бошлиги Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙҲАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад. С.Раширова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф. Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц. А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: - акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д., проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: - и.ф.д., проф. Н.Махмудов, и.ф.д., проф. О.Одилов.

Фалсафа фанлари: - акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: - акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф. С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц. М.Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф. А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф. Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: - б.ф.д. Ф.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари - п.ф.д., проф. З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник мұхаррірлар: Н.Юсупов, Г.Акмалжонова

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-йй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 Факс: (0369)227-07-61 e-mail: ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлиб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бүйічі Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридан Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сюни гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 11.02.2021 йилдаги кенгайтирилган йигилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишига рухсат этилган (Баённома № 2). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021

одатлар, кундалик фаолият, муомала маданияти, турмушнинг жўғрофий шароитлари, ўсимликлар ва ҳайвонот олами, маданий фонд сингари қатор лингвистик ва экстравалингвистик шарт-шароитлар киради. Шу сабабли, лакуналарни аниқлаш ва тавсифлаш жараёнида унинг лингвомаданий компонентини юзага чиқариш орқали таҳдил олиб бориш ишни енгиллаштиради.

Адабиётлар:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 240 с.
2. Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Культура и текст. Введение в лакунологию. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2008. – 144 с.
3. Қодирий А.Ўткан кунлар; Мехробдан чаён: Романлар. – Тошкент: Фофор Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 656 б.
4. Bygone days (O'tkan kunlar): Nashville TN, Copyright: 2018. – 661 р.
5. Days gone by: Nouveau Monde editions, 2018. English 3rd edition. – 349 р.
6. Досбаева Н.Т. Таржималар таҳдилида Қодирий “андиша”лари/Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020.– № 4 (33). – Б.186-196.

**“LISON UT-TAYR” MA’NAVIY YUKSALISHGA CHORLOVCHI BADIY FALSAFIY
ASAR**

Namangan Davlat universiteti,

“Amaliy ingliz tili kafedrası” stajor o’qituvchilari

Sayfiddinova Nozima va Abdullayeva Gavharoy

Tel:+998945043906 e-mail: ladymelody999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning badiiy-falsafiy “Lison ut-tayr” dostoniniq strukturaviy tuzilishi, umumiy mazmun mohiyati, dostonda berilgan hikoyatlar haqida qisqacha xulosalar muhokama qilinadi. Bundan tashqari, asarning asl mohiyati, undan chiqarilguvchi umumiy xulosa, insonni ma’naviyati qarashlari va fikrlariga bevosita ta’sir e’tuvchi Alisher Navoiy tominidan ilgari surilgan g’oyalar haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada taqdim etilgan barcha faktlar, ma’lumot va fikrlarga ko’ra, bu asar nima sababdan Navoiy asarlarining durdonalaridan biri ekanligi, shoirning diniy-tasavvufiy, badiiy-falsafiy fikrlarining qisqacha mazmuni tushunishga imkon beradi.

Kalit so’zlar: “Lison ut-tayr”, “Mantiq ut-tayr”, Xudxud, Simurg’, Tasavvuf, hikoyat.

**“LISON UT-TAYR” IS AN AESTHETIC AND PHILOSOPHICAL WORK THAT CALLS
FOR SPIRITUAL GROWTH**

Sayfiddinova Nozima and Abdullayeva Gavkharoy

Teachers at department of “Practical English”

Namangan State University

Tel:+998945043906 e-mail: ladymelody999@gmail.com

Abstract: This article discusses the structural form of Alisher Navoiy’s literary philosophical book “Lison ut-tayr”, the essence of the content, and the conclusions drawn from the poem. It also reflects on the essence of the work, its conclusions, the ideas put forward by Alisher Navoi, Which directly affect the spiritual views and thoughts of the person.According to all the facts, information and

opinions presented in this article, why this work is one of the masterpieces of Navoi, it will allow you to understand the religious content of the poet's philosophical, artistic and philosophical views.

Key words: "Lison ut-tayr", "Mantiq ut-tayr", Khudkhud, Simurg, mysticism, parable.

"ЛИСОН УТ-ТАЙР" ХУДОЖЕСТВЕННОЕ И ФИЛОСОФСКОЕ ПРОИВЕДЕНИЕ, ПРИЗЫВАЮЩЕЕ К ДУХОВНОМУ РОСТУ

Наманганский Государственный университет

Сайфуддина Нозима и Абдуллаева Гавхарой стажёр преподаватель

Наманганского Государственного университета

Кафедра "практического английского"

Tel:+998945043906 e-mail: ladymelody999@gmail.com

Аннотация: В этой статье рассматриваются структурная форма литературно-философской поэмы Алишера Навои "Лисон ут-тайр" суть содержания и общие выводы, которые непосредственно влияют на взгляды и идеи человека. Согласно всем фактам, информации и мнениям, представленным в этой статье, почему эта работа является одним из шедевров Навои, он позволит вам понять религиозное содержание философских, художественных и философских взглядов поэта.

Ключевые слова: "Лисон ут-тайр", "Мантик ут-тайр", Худхуд, Симург, притча.

Bugungi kunda yurtimizda, ta'lim sohasiga qaratilgan katta e'tibor natijasi o'larоq ko'p vaqtlardan beri chuqur o'rganilmagan ma'naviy va moddiy merosimizni qayta tiklash, ularni teranroq o'rganish va albatta yosh o'sib kelayotgan avlodning ta'lim tarbiyasi uchun muhim amaliy vosita sifatida foydalanish uchun sharoit imkoniyatlar yaratilmoqda. Anashunday yangi imkoniyatlar debochasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2019-yil 8-oktabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmonini ko'rishimiz mumkin. Aynan farmonning birinchi bandida keltirib o'tilgandek "Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangibosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan mehnat bozorida o'z o'rmini topa oladigan yuqori **malakali kadrlar tayyorlash tizimini** yo'lga qo'yish"[1]. Bunday maqsadli rejalgarda samarali erishish uchun albatta yoshlarimiz madaniy meroslarimiz bilishlari lozim. Hech shubha yo'qki yoshlarni ma'nан yuksaltirishga hissa qo'shuvchi badiiy merosimiz bu Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridir.

"Lison ut-tayr" asari shoir umrining so'ngi yillarda yozilgan va 1499- yillarda yozib tugallangan bo'lib, dostonning ilmiy tanqidiy matnini E.Sharifxo'jayev izohlar bilan nashrqa tayyorlagan. Mazkur nashrda asar hajmi 193 bob, 3666 baytdan iborat deb ko'rsatilgan. Ushbu doston aruz vaznining ramali musaddasi maqsur (foilotun – foilotun – foilon) vaznida yozilgan bo'lib, an'anaviy tarzda muqaddima, asosiyqism va xotimani o'z ichiga oladi. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan. Doston falsafiy-tasavvufiy mazmunda yozilgan bo'lib, buyuk fors-tojik adibi Farididun Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga javoban yozilgan.

Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni shoir ijodida o'ta muhim o'rин tutadi. Chunki buyuk mutasavvuf Farididdin Attorning oliy insonparvarlik, aniqrog'i, allohparvarlik va

tabiatparvarlik g'oyalarining ramziy tarannumi bo'lgan "Mantiq ut-tayr" dostonini Alisher 9-10 yoshlarida boshdan-oxirigacha yod olgandi. Navoiyning bu asami yozishdan ko'zda tutgan bosh maqsadi Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga nazira yozish orqali qush tili vositasida o'zining diniy-falsafiy ta'lilot sohadagi ko'p yillik ijodiy qarashlarini ma'lum tizimga solish va ularga xotima yasashdan iborat edi. Buni muallifning o'z asari haqida aytgan "Chun "Lison ut-tayr" ilhomni bila tarannum tuzubmen, qush tili ishorasi bila haqiqat asrorini majoz suratida ko'rguzubmen" kabi so'zlaridan ham aniq bilib olsa bo'ladi.

Dostonning muqaddimasi 13 bob bo'lib, birinchi bobi Alloh hamdiga bag'ishlangan. Navoiy Alloh bu olamni aniq bir reja asosida bunyod qilganligi haqida yozar ekan, unda hech bir narsa tasodifiy yaratilmaganligini aytadi. Allohnинг mo'jizasi sifatida to'rt unsur (suv, olov, tuproq va havo) ni inson vujudida bir butun holda birlashtirganini ta'kidlab, butun olamni yaratishdan maqsad inson ekanligini aytadi:

O'yakim dushman yarotib o'tqasuv,
Yelni ham tuproqqa aylab aduv.
Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid
Bo'lib inson hilqatida mutahhid.
Ofarinishdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichinda bezav.

Dostonning asosiy qismi 14 bobdan boshlanadi. Bir kuni barcha qushlar majlis qilish uchun yig'ilishibdilar. Lekin majlisda o'rın talashib, janjallahib qolishibdi. Shunda ular agar bir adolatli podsho bo'lganda, baxsga hojat qolmagan bo'lardi deb o'ylashibdi. Shunda, Xudxud degan qush shunday podshoh borligini, uning nomi Simurg' ekanligini va uning huzuriga bormoqchi bo'lganlar uzoq va xatarli yo'lni bosib o'tishlari kerakligini aytibdi. Shunday qilib, Qushlar Xuxud boshchiligidagi yo'lga tushadilar, mashaqqatli safar ularni toliqtirib qo'yadi va ular ortga qaytmoqchi bo'lishadi. Birin-ketin kelib Xudxudga uzrlarini aytishadi. Dastlab to'ti uzr aytadi. Xudxud unga javoban "Hiylagarlikni kasb qilgan yashil chakmonli kishi" bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. To'tidan so'ng tovus uzr aytib, "Tangri meni atrofdagilar ko'rib xusnimga tahsin aytishlari uchun yaratgan, shunday ekan, menga bu safardan ne hojat", — deydi. Xudxud unga javoban masxaraboz bir hinduning o'zini turli naqshu nigorlar bilan bezab, maydonda tomosha ko'rsatgani, uning atrofi bir gala beboshlar to'dasi bilan to'lgach, nazoratchilar tomonidan tutib olinib, darra bilan savalangani haqidagi hikoyatni keltiradi. Shu tariqa Bulul, Qumri, Kabutar, Kabki dariy (tog' kakligi), Tazarv, Qarchig'ay, Shunqor, Burgut, Kuf (boyo'g'li) kabi bir nechaqushlar o'z uzrlarini aytib keladi. Xudxud ularga, har biriga mos holatda turli hikoyatlar bilan javob qaytaradi. Qushlar yo'llari davomida Xudxuddan simurg'ga yetishish yo'lini so'raydilar. Xudxud ularga dostondag'i eng katta va alohida mavqega ega bo'lgan "Shayx Sa'non" haqidagi hikoyatni so'zlab beradi. Hikoyatda aytishicha Shayx Sa'non barcha diniy ilmlari va Qur'onni unitadi, adabiyotshunos olim N. Komilovning fikricha bu holat haqqa yetishish uchun dunyoviylikdan, jumladan, aql va aqliy narsalardan qutilish, o'zligini unitishga ishoradir. Uning xotirasi qaytishi esa, sukradan sahvga qaytish hisoblanadi. Sukradagi soliq bamisolai dengizga sho'ng'ib, g'arq bo'lgan kishi bo'lsa, sahvga qaytgan dengizga sho'ng'ib, gavhar donalarini olib qaytib chiqqan g'avvos kabidir [2].

Xudxud hikoyatdan so'ng asl manzilga yetish uchun 7 vodiyni bosib o'tish kerakligini aytadi. Qushlar vodiylardan o'ta boshlaydilar:

Birinchi vodiy talab vodiysi — qushlarning simurg' vasliga talabgorligi bilan bog'liq bo'ladi. Alisher Navoiy har bir vodiy ta'rifidan keyin shu vodiyni mohiyatini olib beruvchi hikoyat keltiradi. Ikkinci vodiy ishq vodiysi — bu vodiyda qushlarning qalbni Simurg'ning ishq band etadi, ular o'zlarini va dunyoni unitadilar. Navoiy ishq vodiysi ta'rifidan so'ng As'maiy haqidagi hikoyatni keltiradi. Ushbu hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, oshiqning asosiy maslagi ishq yo'lida jismdan voz kechish va yor uchun o'lmoqlikni arzimas deb biliш. Uchinchi vodiy, Ma'rifat vodiysi — bunda qushlar Simurg' haqidagi bilimlar, g'oyalar cheksizligini his qiladilar, Simurg'ni taniy boshlaydilar. Vodiy ta'rifidan so'ng shunday hikoya keltirilganki undan shunday xulosa chiqarish mumkin: Allohn tanish va bilish yo'li har bir solik uchun o'ziga hos bo'lib, bu yo'llar qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ularning maqsadi bir — Yaratganni anglashdir. To'rtinchi vodiy istig'no (ehtiyojsizlik) vodiyida qushlarning ehtiyojmand, Simurg'ning esa ehtiyojsizligi tasviri bayoni soliqning mana shu ehtiyojsizlikni anglab yetish zamiridagi holati ifodalanadi. Beshinchi vodiy tavhid (birlik) vodiysi. Butun borliq yagona ruh — Simurg'dan iborat ekanligini tushunishdan iboratdir. Vodiy mohiyatini yanada aniqroq anglash uchun Alisher Navoiy Mansur Xalloj bilan bog'liq voqeani keltiradi. Hikoyatdan xulosa shuki, Mansur Xalloj tavhid mohiyatini to'la anglab yetmagani uchun "menlik" hayoli bilan "Anal Haq" jumlasini takrorlab yurar edi. Aslida tavhid vodiyida menlikka yo'l yo'q. Oltinchi vodiy hayrat vodiysi — Simurg'ning ulug'verligidan hayratga tushib, aqdan mahrum bo'lish. Shoir bu vodiy haqida keltirgan hikoyatda Haq vasli tomon intilgan soliq hali chinakam visolga erishmay turib, undan benihoya hayratga chulg'anib, o'zligini unitishga ishora qilyapti. So'ngi yettinchi vodiy farqu fano vodiyida o'zlikdan voz kechib, Simurg' bilan birlashish, abadiylikka qaytish mohiyati mujassam. Navoiy bu vodiy haqida 4 ta hikoyat keltirgan. Nihoyat vodiyilar so'ngida faqat o'ttiz qush qolgani ma'lum bo'ladi. O'ttiz qush forschada "Si murg'" degani. Bu qushlar qayerga boqmasinlar, u yerda o'zlarining akslarini ko'ra boshlaydilar. Doston so'ngida qushlar o'zlaridagi simurg'ni kashf etadilar [3].

Tasavvuf falsafasiga ko'ra bu dunyo haqning tajalliyasi — Allohnning jilolanishidir. Dunyodagi barcha mavjudot Allohnning zuhridir. Shu ma'noda inson ham o'zida mana shu zarrani kashf etmog'i, buning uchun esa juda uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tmog'i kerak. Bu yuqorida keltirib o'tilganiday yeti vodiydir.

Adabiyotshunos olim Z. Mamadaliyeva o'zining "Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi" nomli tadqiqotida "Mantiq ut-tayr va "Lison ut-tayr" asarlari ramziy timsollarini talqin qilish asnosida Xudxudning o'ziga xos bir necha xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, tadqiqot muallifining fikricha, "Mantiqut-tayr"dagi g'oyaga ko'ra, undagi qushlar Simurg'ning soyasi, xalos. Ya'ni ular Simurg'ga intilganlaridagina ahamiyatli. Qushlar (insonlar)ning bu dunyodagi hayoti hijron va ayrılıqda[4]. Navoiyda esa ularning yaratilishi hijron va ayrılıqda emas, balki Yaratganning hikmatidadir. Shu ma'noda ikki dostonda "vahdat ul-vujud" falsafasining ikki xil talqini aks etganligini ko'ramiz. Attor dostonida qushlar so'nggi vodiyda Simurg' bilan birlik kasb etadilar, Navoiy dostonida esa riyozat chekish asnosida poklanib, o'zlaridagi Simurg'ni kashf etadilar[5].

Dostondagi ba'zi qushlarni ramziy timsollar sifatida quyidagicha talqin qilish mumkin:

Tovus — dunyo go'zalligiga moyillik.

Qarchig'ay — hokimlik qilish istagi.

Bulbul – foniy dunyo oshig'i.

Kaklik – o'z raftoru amallariga mahliyo bo'lish.

Burgut – maqsadsiz kuch-qudrat.

Tovuq – fikriy, ma'naviy parvozdan mahrumlik.[6]

Bundan kelib chiqadiki, ko'pchilik Haqqa yetishish da'vosi bilan sulukka kirishi mumkin, lekin hamma ham bu yo'ldagi imtihon va sinovlardan o'ta olmasligi mumkin ekan.

Navoiy dostonining yaratilishida bir diqqatga sazovor holat bor: turkiy tilidagi barcha asarlarini Navoiy taxallusi bilan bunyod etgan shoir o'zbek tilidagi bu dostonini Foniy taxallusi bilan ziynatladi [7].

Foniyliek Navoiy orzusi, Foniyliek Olloh oshig'ining bosib o'tajak riyozat bosqichida kamolot cho'qqisidir. Sho'rolar davrida "Lison ut-tayr" nashr etilgan va o'rganilgan bo'lsa-da, uning falsafiy talqinidagi biryoqlamalik, adolatsizlarcha noto'g'ri munosabat hukm surdi. Vohid Zohidov, Natan Mallayev va Olimjon Jo'rayev tadqiqotlarida Navoiy dostoni falsafasi panteizm deb keskin farq ettirildi. Ayni ana shu fikrda ustoz dostoniga nisbatan adolatsizlik hukm surdi. Navoiy odamni goh Ollohni soyasi, goh Ollohnинг o'zi sifatida talqin etadilar. Ammo sho'ro olimlari haqiqatni aytishdan cho'chidilar. Zero, tasavvuf olamda Ollohdan boshqa narsa yo'q, biz ko'rib turgan narsalar Olloh jilvasi deydi. Ya'ni borliq Ollohdan iborat, jonli-jonsiz mavjudotlar Olloh nomli buyuk quyoshning zarralaridir [8].

Ilohiy zarralar sharafini anglagan inson boshqaga nisbatan – Olloh namunasi, zarrasiga nisbatan yomonlik qilolmaydi; yomon ko'rolmaydi; ozor berolmaydi; o'zgani Ollohni e'zozlaganday e'zozlash zaruratini anglaydi. U choq yer yuzi insonlar uchun jannatga aylanadi. Bu tasavvuf tantanasi demakdir! Alisher Navoiy bizning kimligimizni ramziy ma'noda "Lison ut-tayr"da tanitgan, hoy, "sen Olloh namunasisan!", deya xitob qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini rivolantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 09.10.2019
2. Sharipov Sh. Alisher Navoiy "Lisonut tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. – T.: Fan, 1982. – 96 b
3. Lisonut tayr (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
4. Mamadaliyeva Z. Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi. Filol.fan.nomz.diss. – T., 2011.
5. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). – T.: G.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.
6. Imomnazarov M. Haqiqat va majoz (2-3-maqolalar) // Sharq yulduzi. – T., 1989. – № 4; 1991. – № 4.
7. Olimov S. Ishq, oshiq va ma'shuq. – T.: Adabiyot va san'at, 1992.
8. Sharipov Sh. "Lisonut tayr" haqiqati. – T.: Ma'naviyat, 1998.

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

09.00.00	ФАЛСАФА ФАНЛАРИ ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ PHILOSOPHICAL SCIENCES	
24	Madaniyat va shaxs – birgalikda moslashuv Sunatov D.H	130
25	Берунийнинг табииййун оқими тарафдори сифатида борлиқ муаммосини ўзига хос тарзда ўргагаташлаши Тошпўлатова Н. С	136
26	Ўрхун-енисей тошбигитлари тарихимиз талқини сифатида Назаров Н. А	141
27	Античные концепции истины Панжиев С	146
28	Фалсафий меросимиз тадқиқотларда Ортиқов О.И	150
29	Глобаллашув шароитида миссионерликнинг олдини олиш усуллари ва воситалари Обломурадова Х. Н	155
30	Фаннинг қадриятга айланиб боришида интелектуал фаолиятнинг ижтимоий-фалсафий функцияси Соипова М. К	160
31	Оммавий маданият” ва унинг оқибатларига қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш Тожибоева Д.О	165
32	Қўқон хонлиги меъморчилиги Тожибоев У.У	171
33	Шарқ ва ғарб фалсафий тафаккурида инсон муаммоси талқини Тожибоев У.У, Хошимов С С	175
34	Ўзбекистоннинг трансчегаравий маданий алоқаларини ривожлантиришида туризмнинг роли ва аҳамияти Бойматов Ф.З	179
35	Темурийлар даврида илм-фан ва маданият ривожи Ўровов Ш З	184
36	Талаба-ёшларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммолари Худайбердиев А.К	188

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES**

10.00.00	ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ PHILOLOGICAL SCIENCES	
37	Ўзбек тилидан инглиз тилига таржимада муқобиликка эришишда лингвомаданий ёндашув (таржимада лакуналар мисолида) Досбаева Н Т	193
38	“Lison Ut-Tayr” ma’naviy yuksalishga chorlovchi badiiy falsafiy asar Sayfiddinova N Abdullayeva G	198
39	O’zbek xalq maqollarida “baho” konsepti	203